

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№10-SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, OKTABR



OPEN ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrayevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoira Azimovna, i.f.n., SamISI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduxayidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.n., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Elektron nashr 661 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-oktabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI.....	7
Duschanov Alisher Sherzod o‘g‘li	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА: СЕЗОННОСТЬ И МИНИМИЗАЦИЯ ЕГО НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ	14
Муминов Нозим Гаффарович, Қодирзода Фазлиддин Садриддин, Гусейнов Хафиз Фехруз Оғлу, Хубони Сорбон	
О‘ЗBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH.....	21
Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li	
О‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	28
Kadirova Maraljan Matyakubovna	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATI NATIJADORLIGI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH.....	38
Muminov Dilmurod To‘xtasinovich	
О‘ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI UCHUN AKSIZ SOLIG‘I BIRXILLASHTIRILGAN STAVKALARINING SANOAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI	45
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro‘zumurat o‘g‘li, Otabekov Otajon G‘ayrat o‘g‘li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	51
Rasulov Jamshid Karimovich	
О‘ZBEKISTONDA BIG DATA VA SUN‘IY INTELLEKT (AI) YORDAMIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY	66
Saurova Inobat Ikramovna, Kadirbergenova Shaydo Umirbekovna	
О‘ZBEKISTON QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	73
Temirov Azizbek Voit o‘g‘li	
UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI	87
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH	98
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	104
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
О‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALANISH DARAJASI TAHLIL QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Ibragimov Bahrom Bahodirovich	
IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH.....	117
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	124
Alimov Muhammadbobur Ibragimjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ «УМНОГО ГОРОДА» В УПРАВЛЕНИЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ	131
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли	

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	141
Ортикхужаева Юлдуз Азатовна	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI.....	151
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI.....	157
Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING ASSORTIMENT SIYOSATI VA UNI BOSHQARISHGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	163
Boboxo'jayev Baxtiyor Nazirxo'jayevich	
QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITIARI.....	170
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ORQALI TALABNI TAHLIL QILISHGA USLUBIY YONDASHULAR.....	182
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА.....	189
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSİYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	198
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	207
Karrieva Yakutjan Karimovna	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	214
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
FRANCHAYZING VA KLASSTER YONDASHUVI SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI.....	225
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ELEKTRON TIJORATDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	231
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI.....	238
Sharipov Rasulbek Siddiqovich	
PARKENT TUMANIDA OLTIN BEL TOG' KURORTINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	246
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Fatema Nabizada Javid	
MINTAQADA KLASSTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO'LLASH MASALALARI.....	260
Kadirov San'at Yuldashevich	
AGROKLASSTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	266
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	273
Saatova Lolakhon Ergashevna	
HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH.....	281
Salayeva Lobar Ulug'bek qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI.....	290
To'rayev Sardorbek To'rayevich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	297
Turayev Og'abek Kaxramonovich	

TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODELI SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI	305
Radjabov Bunyod Madirimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY PUL OQIMLARI VA STRATEGIK MARKETING INTEGRATSIYASI.....	312
Masharipova Shahlo Adambaevna	
EKSPORT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY MEXANIZMLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	320
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	328
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	336
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SUN'IY INTELLEKT VA ANALITIK PLATFORMALAR YORDAMIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	345
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
BARQAROR MAHALLANI REJALASHTIRISHDA AQLLI MAHALLA TIZIMI IMKONIYATLARI.....	356
Qulmatova Sayyora Safarovna	
OLIY TALIMGA TALABALARNI JALB ETISHNING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI	362
Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	
BANK MENEJMENTIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISH (CRM) TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	369
Kuliev Naim Xalimovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING IJTIMOY TARMOQLARDAGI REYTINGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	382
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
MINTAQAVIY XIZMATLAR SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MENEJMENT SIFATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	388
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
FRANCHAYZING BRENDLARI UCHUN "BREND" KONSEPSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALARI.....	399
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	410
Turayev Og'abek	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI	418
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	427
Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MEXNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	436
Yusupova Dildora Turadjanovna, Musayev Shavkatjon Kayumjonovich	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH	441
Jumayev Shuxrat	
IMPROVING CONSUMER RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN UZBEKISTAN'S AUTOMOBILE DELIVERY SYSTEM: LEGAL FRAMEWORKS AND DIGITAL TRANSFORMATION DIRECTIONS	450
Raupov Abdurahmon Ilhomovich	
АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ НА ТУРИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК КАРАКАЛПАКСТАНА	457
Хошимова Камилла Навфал кизи	
ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA LEAN MENEJMENT TAMOIYILLARI.....	473
Bakayeva Mohira Axrorovna	

TURIZMDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	484
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH..	498
Djumanov Sayitmurod Alimbekovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF BANK ASSET MANAGEMENT: LESSONS FROM THE EU DIGITAL FINANCE STRATEGY FOR UZBEKISTAN (JEAN MONNET MODULE)	505
Shirnova Shokhsanam	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	511
С. Х. Халиков	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ: ТЕНДЕНЦИИ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ (ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА)	518
Кайыбеков Парухат Коньисбаевич	
BANK SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: FINTECH YECHIMLARI VA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH INNOVATSIYALARI.....	525
Rasulov Nuriddin Abdullayevich, Axmedova Nodira Abdurashid qizi	
UZUM YETISHTIRUVCHI KICHIK VA O'RTA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI.....	530
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	541
Mamatkulova Nadira Makkamovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	555
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR.....	564
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
SAVDO-MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRUVCHI MUHIM OMIL	575
Soliyev Axmadjon	
TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNINING MOLIALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI	583
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIALASHTIRISH	591
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA TURAR-JOY KO'CHMAS MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	601
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	610
Avazov Ixom Ravshanovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	618
С.Х. Халиков	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLARGA MOLIAVIY YORDAM KO'PAYTIRISH	625
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	631
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	642
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	653
Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna	

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Alimov Muxammadbobur Ibragimjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: m.alimov@tsue.uz

Annotatsiya

Kichik biznes subyektlari faoliyatida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun korxonalarni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishlari bo'yicha sinflab tahlil qilish, iqtisodiy resurslarni chuqur tahlil asosida o'rganish hamda ulardan samarali foydalanish yo'llarini izlash zarur. Shu yo'nalishda samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlar olib borish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bu jarayon mavzuning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy resurslar, samaradorlik, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo, iqtisodiy resurslarning turlari, kichik biznes, samaradorlik ko'rsatkichlari.

Аннотация

Повышение эффективности использования экономических ресурсов в деятельности субъектов малого бизнеса может быть обеспечено посредством их классификации по секторам — производство, сфера услуг и торговля. Системный и углублённый анализ экономических ресурсов позволяет выявить направления их более рационального применения. Определение показателей эффективности, проведение научно обоснованных и практически значимых исследований, а также достижение положительных результатов способствуют укреплению как научной актуальности, так и практической значимости данного исследования.

Ключевые слова: экономические ресурсы, эффективность, производство, сфера услуг, торговля, классификация экономических ресурсов, малый бизнес, показатели эффективности.

Abstract

The efficiency of economic resource utilization within small business entities can be enhanced by classifying enterprises into distinct sectors such as production, services, and trade. A systematic and in-depth analysis of economic resources allows for the identification of pathways to their more effective use. Furthermore, the determination of efficiency indicators, the conduct of scientifically substantiated and practically significant research, and the attainment of positive outcomes contribute to strengthening both the scholarly relevance and the practical significance of the study.

Keywords: economic resources, efficiency, production, services, trade, classification of economic resources, small business, efficiency indicators.

KIRISH

Global raqobat va raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes subyektlari (KBS) iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy barqarorlikni ta'minlashning eng muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Biroq resurslar — moliyaviy, mehnat, moddiy-texnik, axborot-texnologik va vaqt kabi — cheklangan sharoitda faoliyat yuritish KBS uchun doimiy muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababli, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi amaliy natija beruvchi yechimlarni talab etadigan dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holatlar KBS faoliyatida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini o'lchash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik yondashuv hamda amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

G'afurov U. V. [1] tadqiqotlarida kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda imtiyozlardan samarali foydalanishning nazariy jihatlarini o'rganilgan. Unda imtiyozlarning (soliq, kredit, boj) iqtisodiy mantiqi, "resurs taqsimoti – rag'bat – natija" zanjiri hamda kichik biznesda rag'batlar orqali resurs samaradorligini oshirish mexanizmlari nazariy asoslab berilgan.

Ernazarov N. E. va Kodirov Y. S. [2] tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarini moliyaviy mexanizmlar (garov, kafolat, subsidiya, mikrokredit, lizing) samaradorligi (mahsuldorlik, rentabellik, qo'shilgan qiymat)ga ta'siri tahlil qilingan. Ular moliyaviy faoliyat bilan bog'liq omillarning o'zaro aloqadorligini empirik usullar yordamida o'lchashga uringan. Moliyalashtirish shartlari (foiz, muddat, to'lov intizomi)ning resurslardan foydalanishga multiplikativ ta'siri ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda tarmoqlar bo'yicha geterogenlik va endogenlik xatarlari hamda ma'lumotlar sifatini nazorat qilish ehtiyoji qayd etilgan. Amaliy jihatdan esa moliyaviy instrumentlarni KPI tizimi bilan bog'lash (ROA, ROE, TFP, CCC, mehnat mahsuldorligi) tavsiya etiladi.

Xatamov O. [3] tadqiqotlarida kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini baholash va samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Unda kichik biznesning moddiy-texnika bazasi, inson kapitali, moliyaviy barqarorlik va bozorlashuv salohiyatini kompleks baholovchi mezonlar ishlab chiqilgan hamda samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy choralar taklif etilgan.

Yestvurliyeva A. I. [4] tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarining resurs salohiyatiga hududiy omillar (infratuzilma, bozorga yaqinlik, klasterlashuv, kadrlar)ning ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda "makro–mikro" bog'lanish yondashuvi orqali hududiy siyosat va firma samaradorligi o'rtasidagi interfeys yoritilgan. Hududiy spetsifikaning natijalarni umumlashtirishdagi murakkabligi qayd etilib, amaliy jihatdan klaster infratuzilmasidan foydalanish, logistika va loyiha ofislari orqali resurs yo'qotishlarni qisqartirish zarurligi ta'kidlanadi.

Rudakova T. V., Baskakova O. va boshqalar [5] kichik biznes subyektlarida resurs rejalashtirish, xarajatlarni boshqarish, break-even tahlili, naqd pul oqimlari, soliq hisobi va loyiha baholash (NPV, IRR) masalalarini yoritgan. B. Surya va hamkorlar esa KBS mahsuldorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni, mehnat

unumdorligi, texnologiyalarni qabul qilish, raqamlashtirish va inson kapitalining rolini o'rganadi.

O'rganilgan ilmiy manbalar kichik biznesda resurs samaradorligini oshirishda moliyaviy mexanizmlar, imtiyozlar tizimi, indikatorlar hamda hududiy siyosat va klasterlashuvning o'zaro bog'liq rolini ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA

Kichik biznes subyektlari tomonidan foydalanilayotgan iqtisodiy resurslarning (moliyaviy, moddiy, mehnat, texnologik, vaqt) qanday samara bilan ishlatilayotganini kompleks tarzda baholash, asosiy zaif nuqtalarni aniqlash va ularni optimallashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek "samaradorlik" tushunchasining iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy ko'rinishlarini qamrab oladi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy resurslar — bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan tabiiy, inson va moddiy boyliklar majmuasidir. Ularning miqdori cheklangan bo'lgani sababli, ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu resurslar "ishlab chiqarish omillari" deb ham ataladi. Iqtisodiy resurslar insoniyatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan, ammo miqdori yetarli bo'lmagan vositalar bo'lib, ularni qanday taqsimlash va boshqarish masalasi doimo dolzarb bo'lib qoladi.

Iqtisodiy resurslar odatda quyidagi asosiy toifalarga bo'linadi: yer (tabiiy resurslar) — bu toifa yer, suv, mineral xomashyo, o'rmon, havo va boshqa tabiiy boyliklarni o'z ichiga oladi. Ular tabiat tomonidan beriladi va ishlab chiqarish jarayonida qayta tiklanmaydigan omillar sifatida qaraladi. Mehnat — insonning jismoniy va aqliy salohiyatidan tashkil topgan resurs bo'lib, ishchi kuchi, malaka, tajriba va bilimlarni o'z ichiga oladi. Mehnat samaradorligi va unumdorligi ishlab chiqarishning sifatini belgilovchi asosiy omildir. Kapital resurslar — bu inson tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish vositalari, ya'ni uskunalar, mashinalar, binolar va texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, moliyaviy kapital (pul, aksiyalar va boshqa aktivlar) ayrim hollarda resurs sifatida ko'riladi, biroq u ishlab chiqarish vositasi emas, balki ayirboshlash vositasi sanaladi. Kasbiy bilim va tadbirkorlik qobiliyati esa ishlab chiqarishni tashkil etish, qaror qabul qilish, xavfni baholash va yangiliklarni joriy etish salohiyatini anglatadi. Tadbirkor iqtisodiy resurslarni birlashtirib, foyda olish maqsadida ularni samarali ishlatadigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotda resurslardan foydalanish turli yondashuvlar orqali tahlil qilinadi. Marjinalistik nazariyaga ko'ra, har bir resursdan foydalanishdagi qo'shimcha foyda (marjinal foyda) tahlil etiladi. Marjinal foyda kamayishni boshlaganda, resursdan foydalanishning samaradorligi ham pasayadi, degan xulosa chiqariladi. Neoklassik nazariya esa resurslarni taqsimlashda erkin bozor mexanizmlarining rolini ta'kidlaydi — bu nazariyaga ko'ra, resurslar bozorda narx mexanizmi orqali taqsimlanadi va shu yo'l bilan samarali foydalanish ta'minlanadi. Institutsional nazariya tarafdorlari esa resurslardan foydalanishda ijtimoiy va huquqiy normalar, davlat institutlari hamda


mulkchilik shakllarining ta'sirini tahlil qiladi. Ularning fikricha, samarali foydalanish uchun turli institutlar va qonunlar muvofiqlashgan holda faoliyat yuritishi zarur (1-rasm).



1-rasm. Korxonalarda iqtisodiy resurslar turlari¹

Evolutsion va innovatsion yondashuvlar — bu yondashuvda resurslardan foydalanish jarayoni uzluksiz yangilanish, texnologik rivojlanish va raqobat sharoitida ko‘riladi. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Iqtisodiy xulq-atvor (behavioural economics) nazariyalari esa kichik biznes subyektlarining resurslardan samarali foydalanishini yaxshilashda muhim “insaytlar” — psixologik, kognitiv va institutsional omillarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi (2-rasm).



2-rasm. Tadqiqot olib borishda kichik biznes subyektlarini sohalar bo‘yicha sinflanishi²

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, qisqacha aytganda, kichik biznes subyektlari faoliyatida iqtisodiy resurslardan foydalanish masalasi muhim o‘rin tutadi. Kichik biznes iqtisodiyotning ajralmas sektori bo‘lib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va savdo sohalarida faoliyat yurituvchi subyektlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Kichik biznesda resurslardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular samaradorlikni oshirish va barqaror rivojlanishga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Resurslar deganda moddiy, moliyaviy, mehnat va axborot resurslari tushuniladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi kichik biznes korxonalari asosan mahalliy bozor ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular quyidagi resurslardan foydalanish xususiyatlariga ega: moddiy resurslar — odatda, mahalliy xomashyo va materiallardan foydalaniladi, bu esa transport xarajatlarini kamaytirib, ishlab chiqarishni

¹ Muallif ishlanmasi.

² Muallif ishlanmasi.

arzonlashtiradi. Mehnat resurslari — ishchilarning aksariyati mahalliy aholining oʻzidan tanlanadi, koʻp hollarda esa koʻp vazifali (universal) ishchilar jalb etiladi. Moliyaviy resurslar — boshlangʻich kapital kam boʻlgani sababli, moliyalashtirish koʻpincha shaxsiy jamgʻarmalar, mikro kreditlar va davlat subsidiyalari orqali amalga oshiriladi. Texnologik resurslar — ishlab chiqarishda energiya tejamkor, sodda uskunalardan foydalaniladi, innovatsiyalarga sarmoya kiritish imkoniyati esa cheklangan boʻladi.

Xizmat koʻrsatish sohasi kichik biznes uchun eng keng tarqalgan yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Bu sohada resurslardan foydalanishning oʻziga xos jihatlari bor: mehnat resurslari tarkibida kasbiy malakaga ega xodimlar muhim ahamiyatga ega. Ayrim xizmat turlari (masalan, sataroshlik, taʼmirlash, IT xizmatlari) maxsus bilim va koʻnikmalarni talab etadi. Asosiy moddiy resurslar sifatida zarur jihozlar, mebel, transport vositalari va boshqa vositalar kiradi, bu resurslarni ijaraga olish amaliyoti keng tarqalgan. Axborot resurslari — marketing va mijozlar bilan muloqotda raqamli platformalar hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Moliyaviy resurslarda tez aylanadigan mablagʻlar muhim rol oʻynaydi; ayniqsa, vaqtinchalik xizmatlar (masalan, toʻy xizmatlari) uchun toʻlovlarni oldindan olish amaliyoti keng qoʻllaniladi.

Kichik savdo subyektlari (doʻkonlar, supermarketlar, onlayn platformalar) bozorda muhim oʻrin tutadi. Ular resurslardan foydalanishda quyidagi jihatlarga eʼtibor qaratadi: asosiy resurs — sotiladigan tovarlar boʻlib, ularning turi, sifati va miqdori bozor ehtiyojiga mos tanlanadi. Kam zaxirali ish usuli samarali hisoblanadi. Tovar aylanmasini taʼminlash uchun ishlab chiqaruvchilar yoki ulgurji sotuvchilar bilan bonus va muddatli toʻlov asosidagi kelishuvlar orqali moliyani tejash mumkin. Savdo sohasidagi xodimlar, asosan, muloqotga yoʻnaltirilgan boʻlib, ularning savdo qobiliyati va mijozbopligi muhim ahamiyat kasb etadi. Onlayn platformalar, kassa dasturlari va hisob-kitob tizimlaridan foydalanish kichik savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Samaradorlik — iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat natijalarining ushbu faoliyatga sarflangan resurslarga nisbatan qay darajada maqsadga muvofiq ekanligini koʻrsatuvchi koʻp qirrali tushunchadir. U umumiy iqtisodiy tizimdan tortib, alohida tarmoq yoki xoʻjalik yurituvchi subyekt faoliyatigacha boʻlgan darajalarda namoyon boʻladi. Kichik biznesda samaradorlikni baholash resurslarning samarali taqsimlanishi, daromadlilik, ishlab chiqarish sifati va bozordagi raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik samaradorlik — ishlab chiqarish jarayonida qoʻllanilayotgan texnologiyalar, uskunalar, mehnat mahsuldorligi va innovatsiyalarning samaradorligini baholash orqali aniqlanadi. Bu koʻrsatkich asosan quyidagilarga tayanadi: bir ishchi hisobiga toʻgʻri keladigan mahsulot hajmi; ishlab chiqarish siklining davomiyligi; texnologiyalarning yangilanish surʼati; energiya va resurs tejamkorligi; mahsulot tayyorlashdagi avtomatlashtirish darajasi. Kichik biznesda ushbu koʻrsatkichlar ishlab chiqarish jarayonining innovatsion va raqobatbardosh darajasini belgilaydi.

Moliyaviy samaradorlik — tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan moliyaviy natijalarni baholashning asosiy yoʻnalishi hisoblanadi. Uni aniqlashda quyidagi koʻrsatkichlar qoʻllaniladi: foyda (sof, operatsion, yalpi foyda), rentabellik (aktivlar, kapital va mahsulot rentabelligi), likvidlik va toʻlovga qobiliyatlik (joriy va tezkor likvidlik koeffitsiyentlari), qarzlarining qaytarilishi (qarz mablagʻlaridan foydalanish darajasi, toʻlov intizomi). Moliyaviy samaradorlikni baholash kichik biznesning moliyaviy barqarorligini va rivojlanish salohiyatini aniqlash imkonini beradi.

Iqtisodiy samaradorlik — bu tadbirkorlik subyektlarining resurslardan foydalanishda olinayotgan natijalarini keng qamrovda baholovchi tushuncha boʻlib, u faqat moliyaviy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlarni ham qamrab oladi. Bu koʻrsatkich quyidagilarni oʻz ichiga oladi: mehnat unumdorligi, mahsulot sifati va standartlarga muvofiqligi, talab va taklif oʻzgarishlari, investitsiyalarning samaradorligi (NPV, IRR, PI, DPP), raqobatbardoshlik indeksi, infratuzilma va kadrlar salohiyatining samarasi. Ushbu koʻrsatkichlar kichik biznesning ichki imkoniyatlari hamda tashqi iqtisodiy muhitdagi faoliyatini toʻliq baholashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilganda, iqtisodiy resurslarni turlarga ajratish, kichik biznes subyektlari faoliyatida ularni sinflash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini turli iqtisodiy usullar yordamida tahlil qilish korxonalar faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning eng faol va innovatsion segmenti sifatida resurslardan oqilona va samarali foydalanishga muhtojdir. Ushbu maqolada samaradorlik tushunchasi keng qamrovda yoritilib, uning texnologik, moliyaviy va iqtisodiy koʻrinishlari chuqur tahlil qilindi.

Taʼkidlash joizki, kichik biznesda samaradorlik faqat moliyaviy foyda bilan emas, balki resurslar aylanishi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish sifatining oshishi hamda bozordagi raqobatbardoshlik darajasi bilan ham belgilanadi. Tadqiqot natijalariga koʻra, kichik biznesda texnologik samaradorlikni oshirish — ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya va resurs tejamkorligini taʼminlash orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy samaradorlik esa rentabellik, likvidlik, toʻlov qobiliyati va investitsiya jozibadorligini tahlil qilish orqali baholanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari (NPV, IRR, mehnat unumdorligi, raqobat indeksi) yordamida resurslar aylanmasi va yakuniy natijalar oʻrtasidagi bogʻliqlik aniq namoyon boʻladi.

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan koʻrsatkichlar va indikatorlar tizimi kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini toʻgʻri baholash, asosiy zaif jihatlarni aniqlash hamda resurslardan foydalanishni optimallashtirish uchun ishonchli asos boʻlib xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan nazariy va amaliy xulosalar tadbirkorlar, tahlilchilar va siyosat ishlab chiquvchilar uchun amaliyotda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan muhim tavsiyalarni oʻz ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Гафуров У.В. “Кичик бизнесни қўллаб-қувватлашда имтиёзлардан самарали фойдаланишнинг назарий масалалари” Иқтисодиёт ва инновацион

технологиялар илмий электрон журнали, № 8, ноябрь–декабрь, 2013 йил. Тошкент давлат иқтисодиёт университети нашри.

2. Ernazarov N. E., Kodirov Yusufbek Suyunbek Ugli. “The Impact of Financial Mechanisms on Increasing the Efficiency of Small Businesses and Private Entrepreneurship”. Journal of Sustainable Tourism and Entrepreneurship, Vol. 6, No. 2, 2025 йил. Goodwood Publishing, UK.

3. Хатамов О. “Кичик тадбиркорлик субъектлари салоҳиятини баҳолаш ва самарадорлигини ошириш масалалари”. Economics and Innovative Technologies журнали, 2021 йил. Inlibrary.uz нашри.

4. Естурлиева А.И. «Экономическая эффективность малого и среднего бизнеса в региональном контексте».

5. Экономика малого и среднего бизнеса (Т. В. Рудакова, О. Баскакова ва бошқ.).

6. “Эффективность экономического потенциала малого бизнеса и задачи его повышения (на примере Андижанской области)” — МСБ потенциалини ошириш усуллари, жумладан ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини яхшилаш йўллари.

7. B. Surya, et al. “Economic Growth, Increasing Productivity of SMEs, ” — [ScienceDirect](https://www.sciencedirect.com).



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**